



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-fevral

84-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 77-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 77-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 77-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 78-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarorida tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga (keyingi o‘rinlarda – maktablar) jalb qilish orqali o‘quvchilarni kasbhunarlarga o‘qitishni tashkil etishning yo‘nalishlari belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlik yo‘nalishlari;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish tartibi;

tadbirkorlar tomonidan maktablarda kasb-hunar to‘garaklarini tashkil etish asoslari;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan binolarini tadbirkorlarga ijaraga berishda umumiy o‘rta ta’lim muassasasi va tadbirkorlarning majburiyatlari;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi;

2025-yildan boshlab o‘quvchilarni ularning iqtidori va qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo‘naltirish, zamonaviy kasblar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida 8-sinf o‘quvchilari uchun Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, agrotexnologiya sohalaridagi korxonalar va tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil etishi;

har yili 1-aprelga qadar kelgusi o'quv yilida kasb-hunarga o'qitish joriy etiladigan maktablar ro'yxatini shakllantirishi va tasdiqlashi;

har yili 1-mayga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarida kasb-hunarga o'qitish joriy etiladigan maktablarga tegishli bo'sh binolarning manzilli ro'yxatini shakllantirib, Savdo-sanoat palatasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga taqdim etishi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda 2024/2025-o'quv yili yakuniga qadar maktablar bitiruvchilarini egallaydigan kasbhunari bo'yicha amaliy imtihondan o'tkazish va ularga elektron sertifikat berish tartibini joriy etish choralarini ko'rishi;

o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtlarida kasb-hunarga o'qitishda tadbirkorlarni jalb qilish amaliyotini 2025/2026-o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o'tkazib, tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqqan holda, ushbu amaliyotni boshqa hududlarda ham joriy etish yuzasidan takliflarni 2026-yil 1-iyulga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Savdo-sanoat palatasi:

har yili 1-iyunga qadar "20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) ishtirokchilariga maktablarning bo'sh binolari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazishi;

har yili 1-iyulga qadar maktablar bilan o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitish bo'yicha hamkorlik qilish istagini bildirgan Dastur ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etishi;

Dastur ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish choralarini ko'rishi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarida kasb-hunarga o'qitish istagini bildirgan Dastur ishtirokchisi sertifikatiga ega bo'lmagan tadbirkorlarga maktablarning bo'sh binolarini belgilangan tartibda "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish choralarini ko'rishi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi:

Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda har yili 1-avgustga qadar o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarida kasb-hunarga o'qitish istagini bildirgan Dastur ishtirokchisi sertifikatiga ega bo'lgan tadbirkorlar va maktablar o'rtasida bo'sh binoni tekin foydalanishga berish to'g'risida shartnoma tuzishga ko'maklashishi;

ikki oy muddatda yirik jihozlar bilan ta'minlanadigan, mavjud ustaxonalari joriy ta'mirlanadigan va yengil tipdagi ustaxonalar quriladigan maktablar hamda xarid qilinadigan jihoz, asbob-uskuna va xomashyo materiallari ro'yxatlarini shakllantirishi va tasdiqlashi;

belgilanishicha, maktablarning bino va inshootlaridan foydalanishda quyidagilar taqiqlanishi:

bino va inshootlarni xususiylashtirish;

o'quvchilarning sog'lig'i va xavfsizligiga salbiy ta'sir qiluvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

binolar va inshootlar, shu jumladan, yerosti inshootlarini qurish (yengil konstruksiyali inshootlar bundan mustasno);

ko'ngilochar, umumiy ovqatlanish va savdo obyektlarini tashkil etishi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi (O.Xujayev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev) bilan birgalikda:

kasb-hunar o'qitish tashkil etilgan maktablarni mahalliy budjet mablag'lari hisobidan zarur jihoz va xomashyo bilan ta'minlash;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kasb-hunarga o‘qitish tashkil etilgan maktablarning 10-11-sinf o‘quvchilarini ularning ota-onasi yoki o‘rnini bosuvchi shaxslardan birini xabardor qilish asosida kasb-hunarga o‘qitish jarayonida mehnat qonunchiligiga muvofiq tadbirkorlik subyektlarida belgilangan oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida ish haqi olishni tashkil etish choralari ko‘rsin.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (O.Xujayev) manfaatdor bo‘lim va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov